

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

Xayitov Rustam Burxonovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası

o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

E-mail: xayitov_r@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston hududlarida paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish darajasi baholandi. Tadqiqotda ishlab chiqarish, moliyaviy, eksport, innovatsion va ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida klaster faoliyati tahlil qilindi. Statistik ma‘lumotlar va hisoblash usullari orqali klasterlarning samaradorlik darajalari aniqlanib, hududlar kesimida farqlar baholandi. Natijalar ayrim hududlarda yuqori samaradorlikka erishilganini, boshqalarida esa foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Integral baholash asosida klasterlar rivojlanish darajasi tasniflandi hamda ularning samaradorligini oshirish yo‘nalishlari belgilandi.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasterlari, salohiyat, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati, innovatsion rivojlanish, integral baholash, mintaqaviy tahlil

Аннотация

В статье оценена степень использования потенциала хлопково-текстильных кластеров в регионах Узбекистана. В исследовании проанализирована деятельность кластеров на основе производственных, финансовых, экспортных, инновационных и социальных показателей. С использованием статистических данных и расчетных методов определены уровни эффективности кластеров и выявлены региональные различия. Результаты показали, что в ряде регионов достигнут высокий уровень эффективности, тогда как в других сохраняются нереализованные возможности. На основе интегральной оценки проведена классификация кластеров и определены направления повышения их эффективности.

Ключевые слова: хлопково-текстильные кластеры, потенциал, производственная эффективность, экспортный потенциал, инновационное развитие, интегральная оценка, региональный анализ

Abstract

This article evaluated the utilization level of cotton-textile cluster potential across regions of Uzbekistan. The study analyzed cluster performance based on production, financial, export, innovation, and social indicators. Using statistical data and calculation methods, efficiency levels were determined and regional differences were identified. The results showed that some regions achieved high efficiency, while others had underutilized potential. Based on integrated assessment, clusters were classified by development level and key directions for improving efficiency were identified.

Keywords: cotton-textile clusters, potential, production efficiency, export potential, innovation development, integrated assessment, regional analysis

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida paxta-to‘qimachilik tarmog‘i iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi va milliy ishlab chiqarish tizimida muhim o‘rin egalladi. Ushbu tarmoq xomashyo yetishtirishdan boshlab, uni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan uzluksiz texnologik jarayonni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, paxta-to‘qimachilik klasterlari iqtisodiy integratsiyaning samarali shakli sifatida rivojlanib, ishlab chiqarish bosqichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minladi.

Klaster tizimining joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlari shakllandi. Bu esa resurslardan kompleks foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, klasterlar doirasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining samarali faoliyati ularning mavjud salohiyatidan qay darajada foydalanilayotganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Salohiyat tushunchasi ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy resurslar, innovatsion imkoniyatlar va mehnat resurslarini qamrab olgan holda kompleks yondashuvni talab etadi. Shu sababli, klaster faoliyatini baholashda alohida ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda integrallashgan tahlilni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish darajasini baholashga alohida e‘tibor qaratildi. Statistik ma‘lumotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida klasterlarning ishlab chiqarish, moliyaviy, eksport va innovatsion faoliyati tahlil qilindi. Olingan natijalar klasterlar rivojlanish darajasini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni baholash hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ularning samarali ishlashiga bog‘liq bo‘ladi hamda bu bo‘yicha turlicha tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Ya‘ni, paxta tozalash zavodlarining uskunalari optimal ishlashni ta‘minlab, moddiy va energiya resurslarini tejashni ta‘minlashi kerak [1]. Bu borada paxta-to‘qimachilik klasterining salohiyati mavjud resurslardan (yer, mehnat, kapital, texnologiya, logistika va boshqaruv) yuqori darajada foydalanish orqali yuqori iqtisodiy natijaga erishish imkoniyatini belgilaydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanishda turli yondashuvlar xosdir. Bu boradagi yondashuvga asosan, klasterni baholash nisbatan sodda bo‘lsa-da, u klaster samaradorligini har tomonlama o‘lchashga qodir bo‘lmaydi. Ushbu metodologiya integratsiyalashgan baholash natijasini ta‘minlamaydi. Bu esa bir nechta klasterlar ish faoliyatini solishtirishni murakkablashtiradi [2].

Paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlarini baholash uchun ulardagi xizmat ko‘rsatish holatini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar ham o‘tkazilgan. Xususan, tadqiqotlarda O‘zbekistonda paxta-

to'qimachilik klasterlari doirasida agro-xizmat ko'rsatish holati va resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi. Bu boradagi ushbu klasterlar hosildorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va to'qimachilik mahsulotlarini yagona qiymat zanjiriga birlashtiradi [3]. Buning uchun paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini baholash turli usullarga tayanadi. Jumladan, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini yaratish va ulardan foydalanish, mintaqaviy tizimlarning iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlash va standart usullar va boshqaruv vositalarid*an foydalangan holda samaradorlikni oshirish amaliyotida iqtisodiy rivojlanishning hozirgi darajasi zarurligi muhokama qilinadi [4].

Shuningdek, tadqiqotlarda ekologik innovatsiyalar va me'yoriy-huquqiy muvofiqlik bevosita savdoni barqaror rivojlantirish va eksportni diversifikatsiya qilishdagi asosiy manba bo'lib qaraladi. Bu borada eksportni strategik oshirish yo'llarini o'rganish va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, atrof-muhitga ta'siri va xalqaro savdo salohiyatini tahlil qilish maqsadida O'zbekiston paxta-to'qimachilik sektorida yashil investitsiyalar, eko-sertifikatlar va aylanma iqtisodiyotni qabul qilishning ko'p usulli baholash usuli qo'llaniladi [5]. Hamda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini baholashda kooperatsiya ham muhim o'rin egallashi tadqiq qilinadi. Aniqroq qilib aytganda, ayrim tadqiqotlarda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan paxta-to'qimachilik klasterlarini sinovdan o'tkazish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, shuningdek, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy klasteri doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish shakllari ko'rib chiqiladi [6].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini baholashda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Salohiyatdan foydalanish darajasini aniqlashda quyidagi asosiy baholash yo'nalishlari e'tiborga olinadi:

- ishlab chiqarish salohiyati - paxta hosildorligi, qayta ishlash quvvatlari, ishlab chiqarish sig'imi;
- moliyaviy salohiyat - investitsiya hajmi, kredit mablag'lari, foyda koeffitsienti va rentabellik;
- eksport salohiyati - eksport hajmi, valyuta tushumlari, eksport ulushi;
- texnologik salohiyat - yangi texnologiyalar ulushi, avtomatlashtirish darajasi va energiya tejamkorlik;

- ijtimoiy salohiyat - yaratilgan ish o‘rinlari, mehnat unumdorligi va ishchi kuchi malakasi.

Shu jihatdan olganda, klasterlar samaradorligini baholash faqat iqtisodiy natijalarga emas, balki ijtimoiy va innovatsion ko‘rsatkichlarga ham tayanadi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlarini baholashda quyidagi formulalar qo‘llaniladi:

1) Umumiy salohiyatdan foydalanish darajasi (USFD). Bu ko‘rsatkich klasterning mavjud ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlaridan qay darajada foydalanganini ko‘rsatadi.

$$USFD = \frac{IChQ}{MICHQ} \quad (1)$$

bu yerda:

IChQ - amalda foydalanilgan ishlab chiqarish quvvati (haqiqiy natija);

MICHQ - maksimal (potensial) ishlab chiqarish quvvati.

Agar $USFD \geq 0,8$ bo‘lsa yuqori daraja, $0,5-0,7$ bo‘lsa o‘rta va $0,1-0,4$ bo‘lsa, past darajadagi foydalanish hisoblanadi.

2) Ishlab chiqarish samaradorligi koeffitsienti (IChSK). Klasterda ishlab chiqarish quvvatlarining qay darajada yuklanganini ifodalaydi.

$$IChSK = \frac{TMH}{YS} \quad (2)$$

bu yerda:

TMH - yil davomida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi;

YS - ishlab chiqarish quvvatining yillik sig‘imi.

Agar *IChSK* 1 dan katta bo‘lsa quvvat to‘liq ishlashini va $ISK < 0,7$ bo‘lsa, quvvatdan to‘liq foydalanilmasligini ko‘rsatadi.

3) Qayta ishlash darajasi (QID). Paxta xom ashyosining qanchalik chuqur qayta ishlanayotganini ko‘rsatadi.

$$QID = \frac{Qqayta}{Qumumiy} * 100 \% \quad (3)$$

bu yerda,

Qqayta - qayta ishlangan paxta hajmi (tonna);

Qumumiy - umumiy paxta xom ashyo hajmi (tonna).

Agar ushbu daraja $80-100 \%$ bo‘lsa yuqori daraja, $50-79 \%$ bo‘lsa o‘rta daraja hamda 50% dan past bo‘lsa past darajada qayta ishlashni anglatadi.

4) Moliyaviy samaradorlik koeffitsienti (MSK). Klasterning foyda olish qobiliyatini baholaydi.

$$MSK = \frac{SF}{XM} \quad (4)$$

bu yerda:

SF - sof foyda;

XM - ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx).

Agar $MSK > 0,3$ bo‘lsa yuqori rentabellik, $0,15-0,3$ bo‘lsa o‘rta va $0,15$ dan kichin bo‘lsa past ekanligini belgilaydi.

5) Eksport salohiyatidan foydalanish darajasi (ESFD). Klaster ishlab chiqargan mahsulotning necha foizi eksportga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

$$ESFD = \frac{E_{real}}{E_{pot}} * 100 \% \quad (5)$$

bu yerda:

E_{real} - amaldagi eksport hajmi (ming dollar);

E_{pot} - potensial eksport imkoniyati (ming dollar).

6) Bandlik samaradorligi (BS). Klaster doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari sonining o‘shish sur‘atini baholaydi.

$$BS = \frac{Y_{oj}}{Y_{ob}} * 100 \% \quad (6)$$

bu yerda,

Y_{oj} - joriy yilgi ish o‘rinlari soni;

Y_{ob} - bazis yilidagi ish o‘rinlari soni.

Agar 120 % va undan yuqori bo‘lsa ijobiy o‘shish, 100 % bo‘lsa barqaror va 100 % dan kam bo‘lsa pasayishni ko‘rsatadi.

7) Innovatsion salohiyat ko‘rsatkichi (ISK_{inno}). Yangi texnologiyalar joriy etishning ulushini ko‘rsatadi.

$$ISK_{inno} = \frac{T_{yangi}}{T_{umumiy}} * 100 \% \quad (7)$$

bu yerda:

T_{yangi} - yangi texnologiyalar bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi;

T_{umumiy} - umumiy texnologiyalar soni.

8) Kompleks integrallashgan baho (KIB). Klaster samaradorligini umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkich sifatida hisoblanadi:

$$KIB = 0.25ESFD + 0.20MSK + 0.15QID + 0.15ESD + 0.10BSK + 0.15ISK_{inno} \quad (8)$$

Agar $KIB \geq 0,8$ bo‘lsa yuqori salohiyatdan foydalanishni, $0,5 \leq KIB < 0,8$ bo‘lsa o‘rta darajadani va $KIB < 0,5$ bo‘lsa past salohiyat darajasini anglatadi.

9) Klaster resurslardan foydalanish indeksi (KRFI). Yer, suv, mehnat va kapital resurslari birgalikda baholanadi:

$$KRFI = \frac{(YF + SF + KF + MF)}{4} \quad (9)$$

bu yerda:

YF - yer resurslaridan foydalanish koeffitsienti;

SF - suv resurslaridan foydalanish koeffitsienti;

KF - kapitaldan foydalanish koeffitsienti;

MF - mehnatdan foydalanish koeffitsienti.

Agar RFI 0,8 dan yuqori bo‘lsa, resurslardan samarali foydalanish ta‘minlanadi.

10) Umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksi (UISI):

$$UISI = \frac{Yalpi\ natijsa}{Yalpi\ xarajat} \quad (10)$$

Agar $UISI > 1$ bo‘lsa klaster foydali va $UISI < 1$ bo‘lsa iqtisodiy samarasizlik mavjud bo‘ladi.

Yuqoridagi formulalar asosida paxta-to‘qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish, moliyaviy, eksport va ijtimoiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Natijalar integral baholash orqali klasterning umumiy samaradorlik darajasi aniqlanadi va uni “yuqori”, “o‘rta” yoki “quyi” toifalarga kiritish imkonini beradi. Ushbu metodika

asosida klaster faoliyatini monitoring qilish tizimini raqamlashtirish, hududlar kesimida solishtirish va investitsion qarorlarni asoslash mumkin.

Shuningdek, klaster samaradorligini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi quyidagi bloklardan iborat bo'lishi guruhlandi (1-jadval):

1-jadval.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini baholash ko'rsatkichlari tizimi¹

Ko'rsatkich turi va darajasi	Asosiy mezonlar	Baholash oraliqlari
yuqori (0,8-1,0)	Resurslardan to'liq foydalanish, eksport hajmining o'sishi, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, foyda koeffitsienti yuqori	Innovatsion va eksportga yo'naltirilgan klasterlar
o'rta (0,5-0,7)	Resurslardan qisman foydalanish, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq yuklanmasligi, moliyaviy oqimlarning barqarorligi past	Rivojlanish bosqichidagi klasterlar
Quyi (0,1-0,4)	Resurslardan samarali foydalanilmayapti, texnik modernizatsiya past, eksport imkoniyatlari cheklangan	Samaradorligi past klasterlar

Ushbu 1-jadvalga asosan, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini baholash ko'rsatkichlari tizimi uning samaradorlik darajasini belgilaydi. Bu borada masalan, 2023-yilda o'tkazilgan iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bo'yicha o'rtacha klaster samaradorlik darajasi 0,68 ni tashkil etgan. Bu esa tizim rivojlanayotganini, biroq ayrim hududlarda resurslardan foydalanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi.

Klaster samaradorligini baholashda quyidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asosiy tahlil obekti sifatida olinadi:

- hosildorlik koeffitsienti (H_k) - 1 gektardan olinayotgan paxta miqdori;
- qayta ishlash koeffitsienti (Q_k) - umumiy hajmga nisbatan qayta ishlangan xomashyo ulushi;
- foyda rentabellik darajasi (R) - sof foydaning ishlab chiqarish tannarxiga nisbati;
- eksport ulushi (E) - eksport hajmining umumiy ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- bandlik koeffitsienti (B_k) - klasterda yaratilgan ish o'rinlari sonining avvalgi davrga nisbatan o'sishi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlari hisoblandi va uning baholash natijalari aniqlandi. Bu ma'lumotlar tahliliy va o'quv xarakterda bo'lib, umumiy tendensiyani ko'rsatadi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi.

2-jadval
Mamlakatimiz hududlaridagi paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlarini baholash natijalari¹

№	Viloyat nomi	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi	Qayta ishlash darajasi	Moliyaviy samaradorlik	Ekspert salohiyatidan foydalanish	Innovatsion salohiyat	Kompleks integral bahosi	Baho darajasi
1	Toshkent viloyati	0,86	92	0,32	84	76	0,83	yuqori
2	Andijon viloyati	0,78	88	0,29	75	69	0,73	o‘rta
3	Farg‘ona viloyati	0,81	90	0,31	82	74	0,80	yuqori
4	Samarqand viloyati	0,74	80	0,27	68	66	0,69	o‘rta
5	Qashqadaryo viloyati	0,65	73	0,21	55	58	0,55	o‘rta
6	Surxondaryo viloyati	0,59	70	0,19	51	54	0,49	quyi
7	Navoiy viloyati	0,83	89	0,33	86	78	0,85	yuqori
8	Buxoro viloyati	0,71	75	0,25	62	60	0,62	o‘rta
9	Xorazm viloyati	0,68	72	0,22	57	56	0,58	o‘rta
10	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,54	65	0,18	46	50	0,46	quyi

Ushbu 2-jadvalga asosan, respublika hududlarida quyidagi ko‘rsatkichlar yuqori, o‘rta va quyi darajalarga mos keladi:

- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent (0,86) va Navoiy (0,83) viloyatlariga to‘g‘ri kelib, ushbu hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi yaxshilangan, texnika parklari yangilangan. Eng past daraja Qoraqalpog‘iston Respublikasi (0,54) va Surxondaryo (0,59) viloyatlariga to‘g‘ri kelib, bu borada quvvatlarni to‘liq ishga solish uchun resurslar yetishmasligi va logistika muammolari mavjud.

- qayta ishlash darajasi. Farg‘ona (90 %), Toshkent (92 %) va Navoiy (89 %) viloyatlari yuqori darajada qayta ishlashga erishgan. Qayta ishlash darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida 65 % bo‘lib, hanuz chuqur qayta ishlash (yig‘irma, trikotaj, tayyor kiyim) bo‘yicha salohiyat to‘liq ishga tushmagan.

- moliyaviy samaradorlik. Yuqori rentabellik 0,3 atrofida bo‘lib, Navoiy (0,33) va Toshkent (0,32) yetakchi hisoblanadi. Quyi ko‘rsatkichlar (0,18-0,21) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatiga to‘g‘ri kelib, bu yerlarda ishlab chiqarish xarajatlari yuqori, foyda hajmi yetarli emas.

- eksport salohiyatidan foydalanish. Navoiy (86 %) va Toshkent (84 %) viloyatlarida eksport imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Qashqadaryo (55 %) va

¹ Muallif ishlanmasi.

Surxondaryo (51 %) viloyatlarida eksport strukturasi cheklangan, asosan yarim tayyor mahsulotlar joʻnatiladi.

- innovatsion salohiyat. Navoiy (78 %) va Toshkent (76 %) viloyatlari klasterlari yangi texnologiyalar joriy etishda yetakchi hisoblanadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi (50 %) va Surxondaryo viloyati (54 %) hududlarida esa innovatsion jarayonlar sust kechmoqda.

- kompleks integral baho. Yuqori daraja ($KIB \geq 0,8$) Toshkent, Fargʻona, Navoiy viloyatlariga toʻgʻri kelib, ularda salohiyatdan samarali foydalanmoqda. Oʻrta daraja ($0,5 \leq KIB < 0,8$) Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlariga toʻgʻri kelib, ularda rivojlanish imkoniyatlari bor. Quyi daraja ($KIB < 0,5$) esa Surxondaryo viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasiga mos kelib, ularda tizimli islohot va investitsiyalarni kiritish talab qilinadi.

Respublikamizda paxta-toʻqimachilik klasterlarining aksariyat qismi oʻrta darajadagi samaradorlikda ishlamoqda. Navoiy, Toshkent va Fargʻona viloyatlarida yuqori texnologik qayta ishlash, eksport va innovatsiya koʻrsatkichlari kuzatiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, paxta-toʻqimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish darajasiga taʼsir etuvchi qator tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillar mavjud boʻladi. Bu borada moliyaviy resurslarga cheklangan kirish xususiy investitsiyalar yetishmasligi va kredit siyosatining qatʼiyligi bilan belgilanadi. Texnik-modernizatsiya darajasi pastligi eski uskuna va texnologiyalar mavjudligini asoslaydi. Kadrlar malakasining yetarli emasligi bevosita texnologik jarayonlarni boshqarishdagi inson omilini aks ettiradi. Bozor infratuzilmasi zaifligi logistika, sertifikatlash va brendlash tizimining sustligini ifodalaydi. Normativ-huquqiy bazaning toʻliq moslashmaganligi esa ayrim hujjatlar klasterlar faoliyatining zamonaviy talablariga mos emasligini koʻrsatadi. Bevosita ushbu omillar klaster salohiyatidan toʻliq foydalanishga toʻsqinlik qilsa-da, ularni bartaraf etish esa iqtisodiy siyosatning muhim yoʻnalishiga aylanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Oʻzbekiston hududlarida paxta-toʻqimachilik klasterlari faoliyati turli darajadagi samaradorlik bilan amalga oshirilganini koʻrsatdi. Klasterlar doirasida ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari oʻzaro integratsiyalashgan holda shakllangan boʻlib, bu tizim qoʻshimcha qiymat yaratish va eksport hajmini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Hududlar kesimidagi tahlil ayrim viloyatlarda ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik yangilanish va eksport yoʻnalishlaridan samarali foydalanilganini, boshqa hududlarda esa mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi hali toʻliq shakllanmaganini koʻrsatdi.

Baholash natijalari asosida klaster faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy va innovatsion koʻrsatkichlari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjudligi aniqlandi. Xususan, texnologik yangilanish darajasi yuqori boʻlgan hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyati ham nisbatan yuqori shakllangan. Shu bilan birga, resurslardan foydalanish darajasi, logistika imkoniyatlari va boshqaruv samaradorligi klaster natijalariga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Integral baholash natijalari klasterlarni

rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash va ularning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar asoslandi. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish orqali klasterlarning texnologik darajasini oshirish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Klasterlar faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun investitsiya jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish va kredit resurslaridan foydalanish shartlarini takomillashtirish zarur. Bu esa yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, mahsulotlarni saqlash va tashish tizimlarini takomillashtirish orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi. Eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini rivojlantirish ham klasterlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarini tayyorlash, malaka oshirish tizimini kuchaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish klasterlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlaydi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanish darajasini kompleks baholash ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, hududlar o‘rtasidagi farqlarni baholash hamda iqtisodiy siyosatni asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish klasterlar samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Усманов Х.С., Шерназаров К.Э., Равшанов О.А. Анализ резервов повышения качества хлопковой продукции на хлопково-текстильных кластерах. // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2024. 12(129). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/19006> (дата обращения: 22.10.2025).

2. Ибрагимова Р.С., Токунов А.А. Оценка эффективности текстильных кластеров: методический аспект. // «Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение», №3 (47), 2016. - с. 76.

3. Kudratova I.T. Analysis of Agro-Service Provision and Resource Utilization Efficiency in Cotton-Textile Clusters. // *American Journal of Biodiversity*, Vol. 2 No. 6 (2025).

4. Khalmatjanova G.D., Yuldasheva G.A., Rayimdjanova G.K. (2022). Features of Criteria of Profitability of Cotton-Textile Cluster. In: Popkova E.G., Sergi B.S. (eds) *Sustainable Agriculture. Environmental Footprints and Eco-design of Products and Processes*. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-19-1125-5_12

5. Mansurov S.K. Strategic Development of Export Potential for Cotton-Textile Clusters through Green Technologies and Sustainable Practices. // E3S Web Conf., Volume 648, 2025, International Conference on Civil, Environmental and Applied Sciences (ICCEAS 2025). - pp. 1-7.

6. <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/4879>

7. Khakimov Z., Akramov T., Mahmudov T. Discriminant analysis of consumer attitudes towards fashion //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. - 2022. - Т. 2249. - №. 0892.

8. Хакимов З. А., Бердиев Б. Б. ОЦЕНКА ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ АГЛОМЕРАЦИОННЫХ ИНДЕКСОВ В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Фундаментальные и прикладные исследования в области управления, экономики и торговли. - 2023. - С. 347-356



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**